

**INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA GEORTONIMLAR: TEMATIK
GURUHLARI, DEREVATSIYASI**

Termiz davlat pedagogika instituti

1-bosqich magistranti

Yarashova Shaxnoza Nasimovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada geortonimlarning onomastik ko'lamdagi o'rni, o'zbek hamda ingliz tillaridagi geortonimlarning etimologik, leksik-semantik, ingvokulturologik xususiyatlari hamda ingliz va o'zbek tillarida geortonimlar: tematik guruhlari, derevatsiyasi haqida ma'lumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'zlar: geortonimlar, nom motivatsiyasi, tugallanganlik motivi, sifat va muhimlilik motivi, vaqt motivi, predmet motivi, subyekt va harakat motivi va boshqalar.

**ГЕОРТОНИМЫ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ И УЗБЕКИСТАНЕ:
ТЕМАТИЧЕСКИЕ ГРУППЫ, ПРОИЗВОДСТВО**

Аннотация: В данной статье вы узнаете о месте геортонимов в ономастической сфере, этимологических, лексико-семантических и лингвокультурологических особенностях геортонимов в узбекском и английском языках, а также геортонимы в английском и узбекском языках: тематические группы, деривация.

Ключевые слова: геортонимы, мотив имени, мотив завершения, мотив качества и важности, мотив времени, мотив объекта, мотив субъекта и действия и т. д.

**GEORTHNYMS IN ENGLISH AND UZBEKISTAN: THEMATIC
GROUPS, PRODUCTION**

Abstract: In this article you will learn about the place of georthonyms in the onomastic sphere, etymological, lexical-semantic and linguacultural features of georthonyms in Uzbek and English, as well as georthonyms in English and Uzbek: thematic groups, derivation.

Keywords: georthonyms, name motive, completion motive, quality and importance motive, time motive, object motive, subject and action motive, etc.

O‘zbek tili geortologiyasi taddiqining ilk manbalari noyob tarixiy bitik “Avesto”, Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” hamda Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” kabi asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. O‘zbek xalqi bayramlari U.Qoraboyev tomonidan shartli ravishda uch yirik guruhga ajratiladi¹:

- 1) tabiat va mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan mavsumiy bayramlar;
- 2) inson kamoloti, oila hayoti bilan bog‘liq bo‘lgan oilaviy marosim va tantanalar; 3) jamiyat ma’naviyati, e’tiqodlari bilan bog‘liq diniy bayramlar.

M.Radjabova ingliz va rus tillarida geortonim komponentli frazeologik birliklar aniqlanmaganligini ta’kidlab, o‘zbek tilida bunday turdagи frazeologizmlarga misol sifatida Navro‘zdan so‘ng qish bo‘lmas, Mezondan so‘ng yoz bo‘lmas maqolini keltirib o‘tadi¹⁷. Vaholanki, ingliz va rus tillarida geortonim komponentli frazeologizmlarni salmoqli darajada uchratish mumkin². O‘zbek xalqigeortonimlari X.Z. Salixodjayeva tomonidan xrononimlar bilan birgalikda tahlilga tortilgan hamda bir nechta semantik guruhlarga ajratilgan.

Onomastik nuqtayi nazardan geortonimlarning semantik, paradigmatic hamda struktural xususiyatlarini tahlil qilish orqali ushbu lingvomadaniy birliklarning tarixiy shakllanish va nomlanish tamoyillari aniqlandi. Geortonimlar yuzasidan olib borilgan etimologik tadqiqotlar uchun ishimizda A.Superanskaya tomonidan taklif qilingan “nom motivatsiyasi” terminini qo‘llashni lozim topdik. Qiyoslanayotgan tillardagi geortonimlar tahlili natijasida quyidagi oltita motivlashuv tamoyili aniqlandi:

- 1) tugallanganlik motivi – tarixiy shaxslar tavallud kuni, tarixda sodir bo‘lgan voqeа-hodisalar, ma’lum bir harakatni eslash, xotirlash sharafiga

¹ Корабоев У. Ўзбекистон байрамлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б.72.

² Раджабова М. Ономастик компонентли фразеологик бирликларнинг лингвомаданий жиҳати ва таржима муаммолари (инглиз, ўзбек ва рус тиллари материалида): Филол.фун.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Бухоро, 2020. – В.17.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

nomlangan birliklar (o‘zbek tilida: Alisher Navoiy tavallud topgan kun, Mustaqillik kuni; ingliz tilida: Christmas (Rojdestvo), Valentine’s Day (Valentin kuni), St. Patrick’s Day (Avliyo Patrick kuni) va h.z.);

2) sifat va muhimlilik motivi – ma’lum bir nomning boshqa bir nomdan ajralib turishi asosida hosil bo‘lishi (o‘zbek tilida: Katta Navro‘z, Kichik Navro‘z, Katta Mehrjon, Kichik Mehrjon; ingliz tilida: Great Thanksgiving (Katta Shukronalik kuni), Grand StPatrick’s Day (Katta Avliyo Patrick kuni) va h.k.);

3) vaqt motivi ma’lum bir bayram yoki hodisaning aynan qachon yoki qaysi paytda tashkillanishiga urg‘u beradi (o‘zbek tilida: Navro‘z, Laylat ul-qadr, Ashuro kuni, Barot kechasi; ingliz tilida: New Year’s Eve (Yangi yil kechasi), Bonfire Night (Bonfire kechasi), Whitsunday, Shrove Tuesday, May Day);

4) predmet motivida “muayyan bir narsa (yegulik, meva-sabzavot, o‘simgilik...), mavhum tushuncha yoki muqaddas buyum” semasi ustunlik qiladi (o‘zbek tilida: Uzum sayli, Qovun sayli, Anor sayli, Hosil bayrami, Lola sayli, Xalqaro tinchlik kuni, Xalqaro muzeylar kuni, Butunjahon dengiz kuni, Asal sayli; ingliz tilida: Earth Day (Yer sayyorasi kuni), Pancake Day (Quymoq kuni), Apple Day (Olma kuni), Carrot Cake Day (Sabzili tort kuni), National Pizza Day (Milliy Pitsa kuni)³.

O‘zbek tilida	Ingliz tilida
Semantik va shakliy jihatdan o’xshash	
Hosil bayrami	Harvest festival
Qovun sayli	Melon Day
Lola sayli	Tulip festival
Semantik jihatdan o’xshash, shakliy jihatdan farqli	
Mehrjon	Thanksgiving
Yangi yil	Christmas

³ Салиходжаева Х.З. Ўзбек тили хрононим ва геортонимларининг лисоний тадқиқи: Филол.фан.б.фалс.док.дисс. – Фарғона, 2020. – В.76.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Predmet motivi asosida nomlangan birliklar o‘zbek tilida sayil indikatori bilan faol qo‘llaniladi, ingliz tilida esa ushbu indikator o‘rnida day va festival indikatorlari ishlatiladi;

5) subyekt motivi. P.Chesnokovaning qayd etishicha, “bunday motivlashuv asosida nomlangan geortonimlarda ijtimoiy aloqa tushunchasi ustunlik qiladi⁴. (masalan, o‘zbek tilida: Vatan himoyachilari kuni, Soliqchilar kuni, Chegarachilar kuni, Kulollar festivali, Xalqaro qizlar kuni, Qariyalar bayrami, Yoshlar kuni, “Yosh vatandoshlar” festivali; ingliz tilida: Mother-in-law’s Day (Qaynonalar kuni), World Geographer’s Day (Butunjahon geograflar kuni), National Grandparents Day (Milliy bobolar kuni), President’s Day (Prezident kuni));

6) harakat motivi yuzasidan fikr bildirilganda shuni ta’kidlash kerakki, M.Bogova bayram nomlari uchun geortonim termini o‘rnida aksionim terminini qo‘llaydi va ularni yettita semantik kategoriyyada tasniflaydi. Geortosemantik guruhlar ichida “ma’lum bir ishni amalga oshirish” semasiga ega bo‘lgan bayram nomlarini aksionim-ekssentrizmlar deb nomlaydi. Bunga o‘zbek tilidagi Xalqaro ozon qatlamini muhofaza qilish kuni, Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni; ingliz tilidagi Day of looking at the Sky (Osmonga qarash kuni), National Find a Rainbow Day (Kamalakni topish milliy kuni), National Let’s Laugh Day (Birga kulish kuni) kabilarni kiritish mumkin⁵.

M.Golomidovaning yozishicha, otning o‘ziga xos tavsiflovchi va individuallashtiruvchi semantikasi nafaqat denotativ ishora, balki motivatsion ma’no bilan ham tuzilgan⁶.

Geortonimik belgi semantikasida motivatsiya ulushi ancha yuqoridir. “Geortonim tarkibidagi apellyativ leksikaga murojaat qilinganda, uni apellyativ-onomastik komponent deb atash mumkin”. O‘zbek va ingliz geortonimlarining hosil bo‘lishida ishtirok etadigan apellyativ nomlarni quyidagicha tasniflash mumkin: 1) shaxs jinsi, yoshi bilan bog‘liq apellyativlar: a) ayol jinsi bilan bog‘liq apellyativlar:

⁴ Суперанская А. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – С.244.

⁵ Чеснокова П. Лингвокультурологические особенности чешских и русских названий праздников: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2012. – С.78-79.

⁶ Голомидова М.В. Искусственная номинация в русской ономастике: Дисс. ... док. филол. наук. – Екатеринбург, 1998. – С.17.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Xalqaro xotin qizlar kuni; b) erkak jinsi bilan bog‘liq apellyativlar: Father’s Day (Otalar kuni); c) yoshi ulug‘ insonlar nomlarini bildiruvchi apellyativlar: National Grandparents Day (Bobolar milliy kuni); d) yoshlar apellyativi: Xalqaro yoshlar kuni; 2) tabiat hodisalari, jonivor va predmet nomlari bilan bog‘liq apellyativlar:

- a) tabiiy hodisalar: Xalqaro ozon qatlamini muhofaza qilish kuni;
- b) mavsumiy apellyativlar: Winter Solstice;
- c) qush apellyativi: National Bird Day (Qushlar milliy kuni);
- d) gul apellyativi: Boychechak sayli;
- e) meva va sabzavot apellyativlari: Qovun sayli;
- 3) geografik joy, inshoot, aholi yashash joyi nomlari: Mahalla bayrami, Bog‘ sayli;
- 4) kasb bilan bog‘liq apellyativlar: National Nurses Day (Milliy hamshiralar kuni);
- 5) xalq hayoti bilan bog‘liq turli hodisalarni ifodalovchi apellyativlar:
 - a) ma’rifiy apellyativlar: Dictionary Day (Lug‘at kuni), National Grammar day (Grammatika milliy kuni);
 - b) ijtimoiy madaniy apellyativlar: Xalqaro tinchlik kuni, Xalqaro teatr kuni; Human Rights Day (Inson huquqlari kuni), Cultural Diversity Day (Madaniy xilmassislik kuni), Pride Month (G‘urur oyligi);
 - c) siyosiy apellyativlar: Independence Day (Mustaqillik kuni), Election Day (Saylov kuni);
 - d) diniy apellyativlar: Ramazon hayiti;
- 6) sport turlari bilan bog‘liq apellyativlar: Xalqaro shaxmat kuni, Xalqaro o‘yinlar bayrami, O‘zbekiston Futbol kuni; Super Bowl Sunday, Olimpic Day;
- 7) yegulik va ichimlik bilan bog‘liq apellyativlar: Sumalak sayli, Palov sayli; Pancake Day (Quymoq kuni), National Pizza Day (Milliy pitsa kuni), National Taco Day (Milliy Tako taomi kuni), National Doughnut Day (Milliy donat shirinligi kuni), Whiskey Festival (Viski festivali) va h.k.

M.Bogova tarixiy shaxs nomlaridan hosil bo‘lgan aksionim-geortonimlarga Guy Fawkes Day yoki Guy Fawkes Night nomini, mashhur shaxs nomidan hosil

bo‘lgan birliklarga Burn’s Supper nomini misol tariqasida keltiradi⁷. O‘zbek va ingliz geortonimlarining onomastik birliklardan hosil qilinishini ham quyidagi guruhlarga bo‘lib tahlil qilish mumkin:

1. Antroponimdan: Mahmudxo‘ja Behbudiy tug‘ilgan kun, St. Patrick’s Day.
2. Toponimdan: Markaziy Osiyo kuni.
3. Biblionimdan: “Alpomish” dostoni 1000 yilligi bayrami, “Alice’s Adventures” Festival.
4. Geortonimdan: “Navro‘z – 99” Respublika teatr san’ati festivali, “Summerfest-22” National Music Festival.
5. Ktematonimdan: “Alla” ijrochilarining respublika ko‘rik tanlovi, “Atlas bayrami” festivali.
6. Ornitonimdan: “Xumo” xalqaro teatr festivali.
7. Politonimdan: O‘zbekiston respublikasi Davlat gerbi qabul qilingan kun, National Anthem Adoption Day.
8. Oykodomonimdan: Imom Moturudiy maqbarasi ochilgan kun, White House Heritage Day.
9. Dokumentonimdan: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni; Universal Declaration of Human Rights Festival, Constituion Day Parade va h.k⁸.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aliyeva .A. O‘zbek va ingliz geortonimlarining qiyosiy tadqiqi.-Farg’ona. Nashriyot bosma tabog‘i – 3.2025
2. Богова М. Акционимы – названия праздников и фестивалей. Иностранные языки: инновации, перспективы исследования и преподавания [Электронный ресурс] : материалы III Междунар. науч.-практ. конф., Респ. Беларусь. – Минск, 2020. – С.561 (murojaat sanasi: 28.04.23).
3. Голомидова М.В. Искусственная номинация в русской ономастике: Дисс. ... док. филол. наук. – Екатеринбург, 1998. – С.17.
4. Қорабоев У. Ўзбекистон байрамлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1991. – Б.72.

⁷ Богова М. Акционимы – названия праздников и фестивалей. Иностранные языки: инновации, перспективы исследования и преподавания [Электронный ресурс] : материалы III Междунар. науч.-практ. конф., Респ. Беларусь. – Минск, 2020. – С.561 (murojaat sanasi: 28.04.23).

⁸ Aliyeva .A. O‘zbek va ingliz geortonimlarining qiyosiy tadqiqi.-Farg’ona. Nashriyot bosma tabog‘i – 3.2025
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

5. Раджабова М. Ономастик компонентли фразеологик бирликларнинг лингвомаданий жиҳати ва таржима муаммолари (инглиз, ўзбек ва рус тиллари материалида): Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. автореф. – Бухоро, 2020. – В.17.
6. Салиходжаева Х.З. Ўзбек тили хрононим ва геортонимларининг лисоний тадқики: Филол.фан.б.фалс.док. ...дисс. – Фарғона, 2020. – В.76.
7. Суперанская А. Общая теория имени собственного. – М.: Наука, 1973. – С.244.
8. Чеснокова П. Лингвокультурологические особенности чешских и русских названий праздников: Дисс. ... канд. филол. наук. – Волгоград, 2012. – С.78-79.